



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 386 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloyevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dिल्фуза Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	

BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLAR- -NING PRAKSIOLOGIK TAYYORGARLIGINING TARKIBIY TUZILMASI

Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Nizomiy nomli Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligining nazariy asoslari hamda tarkibiy tuzilmasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Praksiologik tayyorgarlikning mohiyati, uning pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarining mazmuni yoritilgan. Tadqiqotda mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak oligofrenopedagoglarning korreksion-pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: praksiologik tayyorgarlik, bo'lajak oligofrenopedagog, tarkibiy komponentlar, motivatsion komponent, kognitiv komponent, operatsion-faoliyat komponenti, refleksiv komponent, kasbiy kompetensiya, maxsus pedagogika, oliy pedagogik ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and structural framework of the praxeological training of future oligophrenopedagogues from a scientific and pedagogical perspective. It examines the essence of praxeological training, its role in ensuring the effectiveness of pedagogical practice, and the content of its motivational, cognitive, operational-activity, and reflective components. Furthermore, the study substantiates the scientific and practical significance of integrating these components in developing the professional readiness of future oligophrenopedagogues for corrective and pedagogical practice.

Key words: praxeological training, future oligophrenopedagogue, structural components, motivational component, cognitive component, operational-activity component, reflective component, professional competence, special education, higher pedagogical education.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогических позиций проанализированы теоретические основы и структурное содержание прaksiологической подготовки будущих олигофренопедагогов. Раскрыты сущность прaksiологической подготовки, её значение в обеспечении эффективности педагогической деятельности, а также содержание мотивационного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного компонентов. Кроме того, обоснована научно-практическая значимость интеграции данных компонентов в формировании профессиональной готовности будущих олигофренопедагогов к коррекционно-педагогической деятельности.

Ключевые слова: прaksiологическая подготовка, будущий олигофренопедагог, структурные компоненты, мотивационный компонент, когнитивный компонент, операционно-деятельностный компонент, рефлексивный компонент, профессиональная компетентность, специальная педагогика, высшее педагогическое образование.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni va sifatiga nisbatan yangi talablarni belgilamoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi hamda ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish zarur. Shu jihatdan bo'lajak maxsus pedagoglarni, xususan, oligofrenopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Intellectual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayoni pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, korreksion yondashuvlarni to'g'ri tanlash va qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Oligofrenopedagog faoliyati oddiy ta'lim berish jarayonidan farqli ravishda diagnostik, korreksion-rivojlantiruvchi, tarbiyaviy hamda ijtimoiy moslashtiruvchi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shu sababli bo'lajak oligofrenopedagoglarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish yetarli bo'lmay, balki ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olishga tayyorlikni rivojlantirish ham zarur.



Mazkur jarayonda praksiologik tayyorgarlik tushunchasi muhim metodologik ahamiyatga ega. Praksiologik tayyorgarlik pedagogning kasbiy faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, samarali usul va vositalarni tanlashi, o'z faoliyati natijalarini baholashi hamda uni takomillashtirish qobiliyatini ifodalovchi integrallashgan kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu tayyorgarlik bo'lajak oligofrenopedagogning real korreksion-pedagogik faoliyatga moslashuvi va kasbiy kompetensiyalarining shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda oliy pedagogik ta'lim amaliyotida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday texnologiyalardan biri bo'lgan simulyatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirish, talabalarga amaliy faoliyatni modellash, turli pedagogik qarorlarni sinab ko'rish hamda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur texnologiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning praksiologik kompetensiyalarini rivojlantirish va amaliy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini shakllantirish masalasi zamonaviy maxsus pedagogika, kasbiy pedagogika va kompetensiyaviy yondashuvning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning ilmiy-nazariy asoslari ta'limni modernizatsiya qilish, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda pedagoglarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy va ilmiy manbalarda keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Qonunda pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tayyorgarlik va kasbiy mahoratga ham bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini takomillashtirishning huquqiy asosini tashkil etadi [1, 7-10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim me'yoriy hujjatlardan biridir. Qarorda maxsus pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning zamonaviy korreksion texnologiyalarni egallashi, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanishi hamda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan. Ushbu talablar praksiologik tayyorgarlik mazmunini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi [2, 2-6].

Xorijiy tadqiqotlarda ham pedagoglarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarning samaradorligi keng o'rganilgan. Ledger, Burgess, Rappa va hammualliflar simulyatsion platformalar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, virtual va simulyatsion muhitlar talabalarda kasbiy ishonchni mustahkamlash, refleksiv fikrlashni rivojlantirish hamda murakkab pedagogik vaziyatlarni xavfsiz sharoitda mashq qilish imkonini yaratadi [4, 8-15].

Walters, Hirsch, McKown va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Mixed Reality Simulation (aralash reallik simulyatsiyasi) texnologiyalarining bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqotchilar simulyatsion mashg'ulotlar pedagoglarda muloqot madaniyati, individual yondashuvni tanlash, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish hamda refleksiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishini qayd etadilar. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda bunday texnologiyalar real amaliyotga yaqin sharoit yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [5, 344-352].

McKown, Hirsch, Carlson va hammualliflarning tadqiqotlarida bo'lajak maxsus pedagoglarning simulyatsion mashg'ulotlarga munosabati o'rganilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning aksariyati simulyatsion ta'limni nazariy bilimlarni mustahkamlash, pedagogik vaziyatlarni chuqur anglash hamda amaliy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholaganliklarini ko'rsatadi. Mualliflarning fikricha, simulyatsion mashg'ulotlar talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish bilan bir qatorda kasbiy refleksiyani ham rivojlantiradi [6, 9-17].

Education Sciences jurnalida e'lon qilingan tizimli adabiyotlar sharhida Human-in-the-Loop tamoyiliga asoslangan avatarli simulyatsiyalar pedagoglarni tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi. Mualliflar tahliliga ko'ra, simulyatsion texnologiyalar bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi, pedagogik moslashuvchanligi, kasbiy refleksiyasi hamda amaliy qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot natijalari simulyatsion yondashuvning praksiologik tayyorgarlikning barcha tarkibiy komponentlariga kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [7, 4-18].



Qualls, Carlson, Scott, Cunningham va Hirsch tomonidan olib borilgan tizimli tahlilda esa maxsus pedagoglarni tayyorlashda aralash reallik texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha mavjud ilmiy tajribalar umumlashtirilgan. Tadqiqotchilar simulyatsion mashg'ulotlarning bo'lajak oligofrenopedagoglarda pedagogik qaror qabul qilish, diagnostik tahlil, korreksion ishlarni rejalashtirish hamda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori natijalar berishini ilmiy dalillar asosida ko'rsatganlar [8, 128-141].

Inklyuziv ta'lim masalalari bo'yicha UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar ham pedagoglarni tayyorlash mazmuniga alohida e'tibor qaratadi. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All hujjatida pedagoglar alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalashi, mos metod va texnologiyalarni tanlashi hamda ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirib borishi zarurligi ta'kidlangan. Mazkur tavsiyalar praktsiologik tayyorgarlikning motivatsion va operatsion komponentlarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi [9, 15-27].

UNESCO Global Education Monitoring Report 2020 hisobotida esa inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy kompetensiyalariga bog'liqligi qayd etiladi. Hisobotda pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, reflektiv faoliyatni rivojlantirish hamda innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalanish zarurligi ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan. Ushbu xulosalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligi tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. [10, 164-173]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va praktsiologik yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda simulyatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Bugungi kunda pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mutaxassisning amaliy faoliyatga tayyorgarligi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ham bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligi aynan ushbu to'rtta komponent asosida tavsiflanadi.

Praktsiologik tayyorgarlik murakkab integrativ pedagogik hodisa bo'lib, u faqat nazariy bilimlar yig'indisini emas, balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini tahlil qilishga xizmat qiluvchi shaxsiy hamda kasbiy sifatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Shu sababli praktsiologik tayyorgarlikni bir butun tizim sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy komponentlardan iborat dinamik tuzilma sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotda praktsiologik tayyorgarlikning quyidagi tarkibiy komponentlari asos qilib olindi.

Motivatsion komponent bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji, kasbga sadoqati, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashga bo'lgan ijobiy munosabati hamda o'z kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirishga intilishini ifodalaydi. Aynan motivatsiya mutaxassisni bilimlarni egallashga, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga va amaliy faoliyatni takomillashtirishga undovchi asosiy omil hisoblanadi. Simulyatsion texnologiyalar talabalarda kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi, chunki ular nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini bevosita his etadilar, real pedagogik vaziyatlarni hal qilish jarayonida o'z kasbiy imkoniyatlarini sinab ko'radilar hamda kelajakdagi faoliyat mazmunini yanada chuqurroq anglay boshlaydilar.

Kognitiv komponent bo'lajak oligofrenopedagogning maxsus pedagogika, maxsus psixologiya, korreksion pedagogika, diagnostika, inklyuziv ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha egallagan nazariy bilimlari tizimini o'z ichiga oladi. Biroq praktsiologik yondashuv nuqtai nazaridan bilimning o'zi yetarli emas. Muhimi, ushbu bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olishdir. Shu sababli simulyatsion mashg'ulotlar davomida talabalar faqat nazariy ma'lumotlarni takrorlamaydilar, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydilar. Bu esa bilimlarning mustahkamligi va funktsionalligini oshiradi.

Praktsiologik tayyorgarlikning markaziy qismi operatsion-faoliyat komponenti hisoblanadi. Ushbu komponent pedagogning kasbiy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq amaliy ko'nikma hamda malakalarini ifodalaydi. Oligofrenopedagog uchun mazkur komponent quyidagi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi:

- korreksion-pedagogik vaziyatni tahlil qilish;
- individual rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;
- korreksion metod va texnologiyalarni tanlash;



- o'quv mashg'ulotlarini loyihalash;
- ota-onalar hamda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni tashkil etish;
- ta'lim natijalarini monitoring qilish va baholash.

Simulyatsion texnologiyalar aynan ushbu komponentni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki talabalar modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladilar, turli metodlarni qo'llaydilar hamda faoliyat natijalarini amaliy jihatdan sinovdan o'tkazadilar.

Refleksiv komponent pedagogning o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularning sabablarini baholash hamda kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga tayyorligini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogikada refleksiya kasbiy rivojlanishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Mazkur tayyorgarlik kasbiy faoliyatni samarali rejalashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, korreksion metodlarni tanlash, amaliy qarorlar qabul qilish hamda o'z faoliyatini baholash kabi ko'nikmalarning uzviy shakllanishini talab etadi. Shu jihatdan praksiologik tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirilgan-dagina bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi to'laqonli shakllanadi.

Motivatsion komponentning rivojlanganligi talabalarda maxsus pedagog kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularni kasbiy o'sishga hamda innovatsion faoliyatga undaydi. Kognitiv komponent esa maxsus pedagogika, korreksion pedagogika, diagnostika va inklyuziv ta'lim bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Ayniqsa, nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash tajribasi praksiologik tayyorgarlikning muhim mezonini hisoblanadi.

Operatsion-faoliyat komponenti bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy faoliyatida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Chunki aynan ushbu komponent orqali pedagog korreksion mashg'ulotlarni loyihalash, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, samarali metod va vositalarni tanlash hamda ta'lim natijalarini monitoring qilish ko'nikmalarini egallaydi. Refleksiv komponent esa amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish, uchragan muammolarni aniqlash, ularning sabablarini baholash va keyingi faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Refleksionaning muntazam amalga oshirilishi pedagogning kasbiy rivojlanishiga, o'z-o'zini baholash hamda o'z ustida ishlash ko'nikmalarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Simulyatsion texnologiyalar ushbu komponentlarning barchasini kompleks rivojlantirish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Modellashtirilgan kasbiy vaziyatlar talabalarga xavfsiz ta'lim muhitida turli pedagogik muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish tajribasini hosil qilish imkonini yaratadi. Natijada nazariy tayyorgarlik amaliy faoliyat bilan uyg'unlashadi, bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy ishonchi, mustaqil fikrlashi hamda korreksion-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyasi rivojlanadi. Shu sababli simulyatsion texnologiyalarni oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish praksiologik tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligi ularning korreksion-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur tayyorgarlik motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Simulyatsion texnologiyalar esa ushbu komponentlarni rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish uchun samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois oliy pedagogik ta'lim jarayonida simulyatsion yondashuvlardan tizimli foydalanish maxsus pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-4860-son qaror, 2020-yil 13-oktabr. - Toshkent, 2020.
3. Ledger S., Burgess M., Rappa N., Power B., Wong K. W., Teo T., Hilliard B. Simulation platforms in initial teacher education: Past practice informing future potentiality // Computers & Education. - 2021. - Vol. 173. - Art. 104385.



4. Walters S. M., Hirsch S. E., McKown G., Carlson A., Allen A. A. Mixed-Reality Simulation With Preservice Teacher Candidates: A Conceptual Replication // Teacher Education and Special Education. - 2021. - Vol. 44, № 4. - P. 340-355.
5. McKown G., Hirsch S. E., Carlson A., Allen A. A., Walters S. Preservice Special Education Teachers' Perceptions of Mixed-Reality Simulation Experiences // Journal of Digital Learning in Teacher Education. - 2022. - Vol. 38, № 1. - P. 4-19.
6. Preservice Teachers Training with Avatars: A Systematic Literature Review of "Human-in-the-Loop" Simulations in Teacher Education and Special Education // Education Sciences. - 2023. - Vol. 13, № 8. - Art. 817.
7. Qualls L. W., Carlson A., Scott S. N., Cunningham J. E. M., Hirsch S. E. Special Education Teachers' Preservice Experiences With Mixed-Reality Simulation: A Systematic Review // Teacher Education and Special Education. - 2024. - Vol. 47, № 2. - P. 126-143.
8. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. - Paris : UNESCO, 2005. - 35 p.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education - All Means All. - Paris : UNESCO, 2020. - 512 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.